TA’LIMDA INTEGRATSIYANING AHAMIYATI

Aytbayev Dilshodxuja Temirbayevich
Nizomiy nomidagi O‘zMPU prifessori, filologiya fanlari doktori (DSc)
Umaraliyeva Roza Azat qizi
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik jarayonda noan’anaviy o‘qitish shakli – integratsiyalashgan tya’limning ahamiyati, fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: individual yondashuv, modernizatsiyalash, integratsiyalash, tabaqalashtirish, integratsiya prinsip, an’anaviy texnologiyalar, pedagogik yechimlar.

Dunyoda integrativ ta’limning rivojlanishi ijtimoy hamda axborot kommunikatsiya sohalarining o‘zaro tizimli aloqadorligi, ilm-fanning istalgan yo‘nalishida kuzatilayotgan integrativ jarayonlarning barchasi jamiyatning zamonaviy ta’limni oldiga qo‘ygan talablarini qondirishga qaratilgan o‘quv-tarbiya jarayonini samarasini ta’minlashning ustuvor strategiyasini belgilaydi [1].

Pedagogik jarayonga integratsiyalashgan holda rivojlanish jarayoni – ilgari bir-biridan farq qiladigan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog‘liq jihatlaridan birini tushunishdir. Bu jarayon allaqachon tuzilgan tizim doirasida ham, yangi tizim doirasida ham amalga oshishi mumkin. Integratsiya jarayonining mohiyati tizimga kiritilgan har bir element ichidagi sifat o‘zgarishlaridir.

Bugungi kunga kelib, an’anaviy o‘qitish o‘rnini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar egallamoqda. Bu o‘rinda noan’anaviy o‘qitish shakli – integratsiya-ning ahamiyati yanada oshib boradi, negaki, integrativ ta’limning darajasiga qarab, uning qo‘llanilish texnikasiga ko‘ra, amalga oshirilgan texnologiyaning istiqbolini belgilash mumkin bo‘ladi. Zero, integratsiya yetarlicha namoyon bo‘la olgan, turli xarakterli mazmunning singdirilishi natijasida yangi sifatiy holatga o‘tishda asosiy omil bo‘lib yuzaga chiqa oluvchi faktor hisoblanadi. Integratsiya chuqur, noan’anaviy ta’lim bilan tavsiflana oluvchi, turfa xarakterdagi katta hajmli o‘quv materialining uyg‘unlashuvini o‘zida namoyon etadi [3].

Hozirgi kunda bir qator o‘quv predmetlari uchun umumiy bo‘lgan tushun-chalar orasidagi aloqalarni o‘rnatish psixologik va metodik asos bo‘lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o‘lkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o‘rgatilishi va zarur o‘qitish vositalari bilan ta’minlanishi kerak. Integratsiyalashgan darslar – interaktiv ta’lim tizimi bo‘lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko‘rgazmali mahoratni vujudga keltirish sirlarini o‘rganadi. Ko‘rgazmali ta’lim tizimi turli xildagi turlar, shakllar, usullar, obyektlar asosida qurilgan [2; 149].

Integratsiya (lotincha integratio – tiklash, to‘ldirish, integer – butun so‘zidan) – bu suveren davlatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni: sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda

shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni; differensiatsiya bilan birga kichadi va Ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiq-lashtirish va birlashtirish [3].

Integratsiya tushunchasi quyidagi ikki xil jarayon sifatida talqin etiladi: birinchidan, tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog‘liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon; ikkinchidan, tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni [1; 129]. Demak, ta’limdagi integratsiya fanlarning yaqinla-shishi va o‘zaro aloqa jarayoni; tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni tushuniladi.

Jamiyatdagi integratsiya jarayonida insonning integratsiya – alohida element-larni yig‘ib, ularni birlashtirish, yaxlit holga keltirish deb tushunish mumkin. Shuningdek, ko‘pchilik olim va metodistlar integratsiya muammosining mazmun-mohiyatini aniqlash bo‘yicha fikr berganlar. Hozirgi kunda “Integratsiya” tushunchasining aniq ta‘rifi metodik adabiyotlarda, bu muammo bo‘yicha shug‘ullangan olimlar tomonidan bir-biriga yaqin bo‘lgan ta‘riflarda berilgan. Ta‘limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang‘ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo‘yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o‘quvchisi predmet yoki voqea hodisalarni bir necha tomondan ko‘rishi muhim: mantiqiy va emotsional tomondan badiiy asarda hamda ilmiy-ommabop maqolada biolog, so‘z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazaridan va boshqalar. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda yashirin aloqadorlik va bog‘lanishlarni aniqlay bilish, fanlararo bog‘lanish, ya‘ni uzviylikni ta‘minlash bugungi kuning eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki fanlararo aloqadorlik ta‘minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o‘qituvchi o‘quvchilarda o‘zining faniga bo‘lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, integratsiya pedagogik hodisa sifatida maktab fanlarining birligiga yondashuvning yangi bosqichiga aylangan. Turli xil obyektlardagi hodisalarning bir-biriga mos kelishiga imkon beradigan fanlararo aloqalarni amalga oshirish bosqichlaridan ushbu hodisalarni birlashtirishga, yangi yaxlitliklarning yarqtilishiga o‘tish kerak, ya’ni haqiqiy integratsiya misolida amalga oshiriladi. Demak, zamonaviy maktabda fanlarning integratsiyasi yangi pedagogik yechimlarni faol izlash, o‘quvchilarga samarali va asosli ta’sir ko‘rsatish uchun pedagogik xodimlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish yo‘nalishlaridan biri xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.04.2017-yildagi PQ-2909-son;
2. Botirova D.J., Xudoyberdiyev Sh. Central asian research journal for interdisciplinary studies 180 (CARJIS) ilmiy jurnali bilan hamkorlikda. “Yangi O’zbekistonning umidli yoshlari” 1(4)-son. 2022-yil 28-may. – B. 149.
3. Qurbonova N.P. Boshlang‘ich sinf darslarini integratsiyalashgan holda tashkil etish. Yangi O‘zbekiston pedagoglari axborotnomasi. 1-jild, 5-son, Part 2 (Yo‘pa). – B. 129.
4. Software Engineering: Theory and Practice, Pearson Education. https://uz. wikipedia.org/wiki/Integratsiya.
5. Новикова Л.И. Педагогика воспитания. Избранные педагогические труды. – Москва, 2009. – С. 351.